



TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YO‘LOVCHI TASHISH IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

G.I.Abdulxamidova

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, iqtisodiy adabiyotlarning sharxi va tahlili, statistik ko‘rsatkichlarning tahlili, yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar, yo‘lovchi tashish vagonlarining nomlari va o‘rindiqlar sonining tahlili hamda bir qator dolzarb masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Temir yo‘l transporti, yo‘lovchi, tashish, yuk, iqtisodiy samaradorlik, tahlil, transport xizmati.

Аннотация: В данной статье рассмотрены пути повышения экономической эффективности пассажирских перевозок на железнодорожном транспорте, реформы, проводимые в нашей стране, обзор и анализ экономической литературы, анализ статистических показателей, факторы, влияющие на экономическую эффективность пассажирских перевозок, анализ пассажирских перевозок. Научно описаны наименования транспортных средств и количество мест, а также ряд актуальных вопросов.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, пассажирские, перевозки, грузовые, экономическая эффективность, анализ, транспортное обслуживание.

Annotation: In this article, ways to increase the economic efficiency of passenger transport in railway transport, reforms carried out in our country, review and analysis of economic literature, analysis of statistical indicators, factors affecting the economic efficiency of passenger transport, passenger the analysis of the names of transport cars and the number of seats, as well as a number of current issues are scientifically described.

Keywords: Railway transport, passenger, transportation, cargo, economic efficiency, analysis, transport service.

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish masalasi bugungi kunda transport xizmati sohasida rivojlanib borayotgan xizmatlardan biri bo‘lib, mamlaktimizdagi aholining katta qismi mazkur Temir yo‘l transport xizmatidan samarali foydalanib kelmoqda. Bunga sabab Temir yo‘l transporti boshqa transport xizmatlariga qaraganda arzon va xavfsiz imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun ham Temir yo‘l transport xizmatlariga aholini yildan-yilga ehtiyoji ortib bormoqda. Temir yo‘l transporti xizmatining ichida aholi tomonidan eng ko‘p foydalanib kelinayotgan turlariga uzoq masofaga mo‘ljalangan poyzdlar va metro xizmati kiradi.

Bugungi kunda millionlab aholi qatlami Temir yo‘l transportining ushbu xizmat turlaridan ko‘p foydalanadi. Temir yo‘l transporti tizimida ham eng ko‘p yo‘lovchilarni tashish xizmati ushbu transport turlarining ulushiga tog‘ri keladi.



Mamlakatimizdagi Temir yo‘l transport sohasi va xizmat turlarini yanada rivojlantirish maqsadida, Muhtaaram Prezidentimiz tomonidan Temir yo‘l sohasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator amaliy islohotlar, loyihalar va yangi innovatsiyalar amaliyotga keng tatbiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, Temir yo‘l transporti sohasini bosqichma-bosqich isloh qilishning ustuvor vazifalari etib quyidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- Temir yo‘lda tashish xizmatlari bozorida raqobatni shakllantirish va jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali tashish jarayonlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

- Temir yo‘l sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonining uzluksizligi, sifatligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchliligini ta‘minlash;

- Temir yo‘l korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash, yo‘lovchi va yuk tashishda tannarx va xarajatlarni kamaytirish, operatsion samaradorlikni ta‘minlash borasida hisobdorlik va rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish;

- 2024-yil 1-yanvardan boshlab yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlari tariflarini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotidan voz kechib, ularni bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmiga o‘tish;

- 2025-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlarini (yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlarda yo‘lovchilarni tashish bundan mustasno) ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan temir yo‘l transportida yuk tashish xizmatlariga berilgan chegirmalarni Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya qilish[1] kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bundan ko‘rinadiki mazkur ustuvor vazifalarni amaliyotga tatbiq etilishi Temir yo‘l sohasini rivojlantirishga, xizmat turlarini takomillashtirishga, yangi innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etilishiga hamda yo‘lovchi tashish hajmini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirishda bir qator zamonaviy yangi imkoniyatlarni joriy etish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Mazkur talablardan biri yo‘lovchi tashish xizmatining tannarxni minimallashtirish va aholiga xizmat ko‘rsatishning zamonaviy turlarini rivojlantirish bo‘lib, ushbu talab Temir yo‘l transporti xizmatida yo‘lovchi tashish iqtisodiy



samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yo‘llardan biri hisoblanadi. Chunki, chipta narxi arzon bo‘lmas ekan, yo‘lovchi tashish xarajatlari qimmatlashib boraveradi. Natida esa, iqtisodiy samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Temir yo‘l transporti xizmatidan asosiy maqsad iqtisodiy samaradorlikka erishish hisoblanadi. Ya’ni aholi qancha ko‘p tashilsa, Temir yo‘l sohasi shuncha ko‘p barqaror darajada rivojlanib boradi. Natijada esa, aholini ko‘p tashilishi yuqori darajada iqtisodiy samaradorlikni yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ushbu zamonaviy yo‘llarni joriy etish yangi imkoniyatlarni amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlaydi.

Temir yo‘l transporti sohasida iqtisodiy samradorlikni oshirish va rivojlantirish borasida ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, iqtisodchi olimlar A.Sh. Shorustamov, J.R. Qobulov, K.A. Jo‘raboyev, R.A. Egamberdiyevlar tomonidan “Temir yo‘l transporti asoslari” nomli yozilgan darslikda Temir yo‘l transportida yo‘lovchlarni tashish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasida bir qator ilmiy fikrlar asoslantirib berilgan. Jumladan: Temir yo‘llarda tashish tannarxi arzon bo‘lib, avtomobil transportiga nisbatan

3-5 barobar, havo transportiga nisbatan 12-15 barobar kam. Temir yo‘llarda mehnat sarfi avtomobil va havo yo‘llariga nisbatan ancha kam[2] ekanligi izohlangan.

Bundan tashqari, Temir yo‘llar ishining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari mehnat unumdorligi tashish tannarxi, daromad, rentabellik, fondlar samaradorligi va boshqalardan iborat ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Temir yo‘llarda tashish jarayonini tashkil qilish va harakatni boshqarish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- harakat xavfsizligi va yuklar saqlanganligini shartsiz bajarish; tashish jarayonining barcha bosqichlarida jadal va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash;

- mehnatni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qilish barcha bo‘limlarning hamkorlikda ishlashini ta’minlash;

- texnik vositalardan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish; yo‘lovchilarga yuqori saviyada xizmat ko‘rsatish;

- boshqa transport turlari bilan hamkorlikda ishlash va boshqa tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyillarga chuqur bilim va omilkorlik bilan amal qilish temir yo‘llardan foydalanishning asosini tashkil qilib, yo‘lovchi va yuklarni tashishni tezkor va tejamkorlik bilan bajarishga imkon yaratadi.

Temir yo‘llarda yo‘lovchilar tashishni tashkil qilish va istiqbolli rivojlantirishning asosiy maqsadi aholining harakatlanishga bo‘lgan barcha talab



va ehtiyojlarini to'la qondirib, vokzallarda va poyezdlarda yo'lovchilarga yuksak saviyali xizmat ko'rsatishdan iborat. Yo'lovchilar tashishning rivojlanish istiqbollari aholining son jihatdan o'sishi, temir yo'llar va boshqa transport turlari bo'yicha harakatchanligining oshishi bilan bevosita bog'liqdir.

Tahliliy ma'lumotlarga qarydigan bo'lsak, yo'lovchi tashish bozoridagi raqobatdoshligini oshirish natijasida shaharlararo aloqalarda umumbajariluvchi yo'lovchilar aylanmasida 25 % va shaharatrof yo'nalishlarida 16 % yo'lovchilarni temir yo'llar orqali tashish ko'zda tutilgan. Yo'lovchilar tashishni miqdorlarini belgilashda esa yo'lovchilar oqimining yo'nalishlari yil fasllari, shaharatrof yo'nalishida esa oy, kun va hatto soatlar bo'yicha taqsimlanishi, yo'lovchilar oqimini o'rganish natijalaridan foydalanib topiladi. Yo'lovchi poyezdlari uch guruhga bo'linadi:

- uzoqqa – 700 km dan ortiq masofalarga qatnovchi;
- mahalliy – 150 dan 700 km gacha;
- shaharatrof –150 km gacha bo'lgan masofalarga qatnovchi poyezdlarga bo'linadi.

Bundan ko'rinadiki Temir yo'l transport xizmatida yo'lovchi tashishning iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayon bo'lib, ularni tartibga solish uchun bir qator muammolarni tartibga solish lozim bo'ladi. Yo'lovchi tashish xizmati juda ham murakkab jarayon, chunki har bir mijozni xohish-istaklarini inobatga olish lozim. Mijozlarni har bir talabini o'rganish va yechimini amalga oshirish talab etiladi. Agar mijozlarni talablari hisobga olinmasa ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori natijalarni bermaydi. Shuning uchun

ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ikkinchi yo'li mijozlarni talablarni har tomonlama bajarish imkoniyatlarni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.

Bugungi kunda, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJda yo'lovchilarga xizmatlar ko'rsatish uchun quyidagi 1-jadvalda yo'lovchi tashish vagonlarining nomlari keltirib o'tilgan.

1-jadval

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJda yo'lovchilarga xizmatlar ko'rsatish uchun yo'lovchi tashish vagonlarining nomlari va o'rindiqlar soni¹

T/r.	Vagonlarning nomlari	O'rindiqlar soni
1.	SV – uzoq masofalik	18-20 kishilik 2 o'rindiqli kupe vagonlar
2.	SV lyuks – uzoq masofalik	8 kishilik 2 o'rindiqli kupe vagonlar
3.	CMK – uzoq masofalik	36-40 kishilik 4 o'rindiqli kupe vagonlar

¹ Railway.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.





4.	CMO	54 kishilik yotoq uchun mo'ljallangan ochiq turdagi platskart vagonlar
5.	MO	viloyatlar aro qatnaydigan qattiq o'rindiqli vagonlar, "Sharq" va "Nasaf" poezdlarida qulay o'rindiqli vagonlar
6.	CMB	yuk-bagajini tashish uchun bagaj vagonlari

Ushbu 1-jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi Temir yo'l transporti tizimida yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan poyzdlarning nomlari va o'rindiqlari soni aniq belgilab ajratib qo'yilgan. Shundan ham kelib chiqib yo'lovchi tashish hajmini aniqlash imkoniyati mavjud. Mazkur ko'rsatkichlarni oshirish borish lozim.

Shundagina Temir yo'l transport tizimida yangi vagonlar va yangi xizmat turlarining qisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ortib borishiga erishiladi.

Qolaversa, Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, quyidagi 1-rasmda 2022-2023 yillarda yo'lovchi va yuk tashishning tahliliy ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.



1-rasm. Temir yo'l transportida 2022-2023 yillarda yo'lovchi va yuk tashishning tahliliy ko'rsatkichlari²

Ushbu 1-rasmdan ko'rinadiki, mamlakatimizda 2022-2023 yillarda Temir yo'l transporti orqali yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini tahliliy ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni yildan-yilga o'sishi yo'lovchi va yuk tashish iqtisodiy samaradorligini oshishga xizmat qiladi.

² Stat.uz



Mamlakatimizdagi Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- yo‘lovchi tashishga ixtisoslashgan vagonlar sonini ko‘paytirish va yangi xizmat turlarini joriy etish;

- yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish tizimini amaliyotga tatbiq etish;

- tashish xarajatlarni minimallashtirish va yo‘lovchi hajmini oshirishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni tatbiq etish;

- yo‘lovchi tashish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga keng qo‘llash;

- yo‘lovchi tashish xizmatini amalga oshiradigan Temir yo‘l transport turlari ko‘paytirish va amaliyotga joriy etish orqali yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini kengaytirishga qaratilgan yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari joriy etiladi hamda yo‘lovchi tashish iqtisodiy samaradorligi yuqori sur‘atlarda o‘shishiga erishiladi. Natijada esa, mamlakatimizdagi Temir yo‘l transporti sohasida yo‘lovchi tashish imkoniyatlari yanda rivojlanishi ta‘minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarori, 2023-yil 10-oktyabr.
2. Shorustamov A.Sh., Qobulov J.R., Jo‘raboyev K.A., Egamberdiyev R.A. “Temir yo‘l transporti asoslari”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan temir yo‘l sohasida tahsil olayotgan barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun darslik TOSHKENT – 2017 yil, 29,69, 289, 299, 300 betlar.
3. Railway.uz
4. Stat.uz